



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil “9”-yanvar

05-40-154-son

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalariga

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlariga

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 823-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 13-bandida pedagog xodimlarning bazaviy tarif stavkasiga har oylik ustama belgilash, umumta‘lim muassasalari xodimlariga mukofotlar berish va ularga moddiy yordam ko‘rsatish ishchi guruh majlisi qarori bilan ochiq muhokama orqali hamda umumta‘lim muassasasining pedagogik kengashi fikrlarini hisobga olib, Jamg‘armada nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirilishi belgilangan.

Mazkur Nizomning 33-bandida umumta‘lim muassasalari xodimlariga moddiy yordam kalendar yil davomida ikki lavozim maoshi (o‘qituvchining tarif stavkasi) miqdorigacha xodimning o‘zi va yaqin qarindoshi (otasi, onasi, turmush o‘rtog‘i, farzandi) vafot etganda, og‘ir kasallikka chalinganda, xodim tabiiy ofatdan zarar ko‘rganda ko‘rsatilishi belgilangan.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda ko‘plab umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari tomonidan o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasida nazarda tutilgan mablag‘lar yetarli bo‘lmasa ham moddiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha hududiy adliya boshqarmalari huzuridagi yuridik xizmat ko‘rsatish markazlarining ijobiy xulosalariga ko‘ra buyruqlar rasmiylashtirilib kelinmoqda.

Tegishli tahlillar natijasida ayrim joylarda 2024-yil dekabr oyi uchun direktor jamg‘armasidan to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlar joriy yilgi xarajatlar smetasining yanvar oyidagi mablag‘lari doirasida amalga oshirilmasdan, direktor jamg‘armasi



bo'yicha keyingi oylar uchun rejalashtirilgan mablag'larni yanvar oyiga ko'chirish orqali xodimlarga moddiy yordam to'langanligi ma'lum bo'ldi.

Bunday holatlar maktablarning direktor jamg'armasi uchun har oylik rejalashtirilgan mablag'larning sun'iy ravishda yetishmovchiligini keltirib chiqarmoqda.

Masalan: Sho'rchi tumanida 949,9 mln.so'm moddiy yordam to'lovlarini to'lab berish uchun **482,5 mln.so'm**, Bandixon tumanida 427,8 mln.so'm moddiy yordam to'lovlarini to'lab berish uchun **180,0 mln.so'm**, Mirzacho'l tumanida 472,8 mln.so'm moddiy yordam to'lovlarini to'lab berish uchun **320,8 mln.so'm**, Zarbdor tumanida 297,2 mln.so'm moddiy yordam to'lovlarini to'lab berish uchun **208,4 mln.so'm**, Shofirkon tumanida 371,9 mln.so'm moddiy yordam to'lovlarini to'lab berish uchun **287,7 mln.so'm** mablag'lar yanvar oyiga ko'chirilganligi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumot uchun: Mirzacho'l tumani 17-maktab xarajatlar smetasining direktor jamg'armasiga yanvar oyi uchun 9,0 mln.so'm mablag' rejalashtirilgan bo'lsada, ammo **60,0 mln.so'm** kassa xarajati qilingan, 14-maktab 7,0 mln.so'm reja, **41,0 mln.so'm** kassa xarajati, Qorako'l tumani 27-maktab 10,0 mln.so'm reja, **50,0 mln.so'm** kassa xarajati, Muzrabod tumani 41-maktab 14,0 mln.so'm reja, **66,0 mln.so'm** kassa xarajati, Nurota tumani 14-maktab 12,0 mln.so'm reja, **58,0 mln.so'm** kassa xarajati qilingan.

Umumta'lim muassasalarining xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag'lar keyingi oylarda kamayishi budjet to'g'risidagi qonunchilikga muvofiq budjet va smeta-shtat intizomi buzilishiga, xodimlarning ish haqi va qo'shimcha to'lovlarini o'z vaqtida to'lanmasligiga olib kelmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, xodimlarning haqli e'tirozlari va tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini keltirib chiqarmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, **Sizdan:**

umumta'lim muassasalari xodimlariga moddiy rag'batlantirish bo'yicha tegishli buyruqlarni har bir oy uchun direktor jamg'armasida rejalashtirilgan mablag'lar doirasida rasmiylashtirish, **bunda:**

birinchi navbatda, direktor jamg'armasidan to'lanishi belgilangan har oylik ustama va boshqa qoshimcha to'lovlar to'lanishini ta'minlash;

shundan so'ng, qolgan mablag'lar hisobidan tegishli oy uchun rejalashtirilgan mablag'lar hajmidan oshib ketmagan holda zaruratga ko'ra moddiy yordam ko'rsatilishini **qat'iy nazoratga olish** va sun'iy ravishda mablag' yetishmovchilik holatlarini cheklash;

umumta'lim muassasalari xodimlariga moddiy yordam ko'rsatish bo'yicha qabul qilingan buyruqlarni qayta ko'rib chiqish;

yuqorida ko'rsatib o'tilgan topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan shaxsan birinchi rahbarlar javobgar ekanligini eslatib o'tib, vazifalar ijrosini ta'minlanishini nazoratga olishingiz so'raladi.

Vazir o'rinbosari

Ijrochi: B.Reymov
Tel.: 55-503-74-00



T. Komilov